O‘QUV LUG‘ATLARNI TUZISHNING LINGVISTIK TAVSIFI (UYADOSH SO‘ZLAR MISOLIDA)

Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li,
Termiz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
adhammusurmonqulov76@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tilshunoslik doirasidagi o‘quv lug‘atlarning tasniflari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek o‘quv lug‘atlarning turlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. O‘zbek tilshunosligida o‘quv lug‘atchilik sohasida qilingan taadqiqotlar, nazariyalar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Uyadoshlik, uyadoshlik munosabati, o‘quv lug‘atlar: paradigmatik tipdagi o‘quv lug‘ati, sintagmatik tipdagi o‘quv lug‘ati.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida o‘quv lug‘atlarni tiplarga ajratsih masalasida uch asosiy tasnif mavjud bo‘lib ular quyidagilar: 1. Antropotsentrik yo‘nalganligiga ko‘ra 2. Umumiy maqsadiga ko‘ra 3. Til tizimini aks ettirishiga ko‘ra kabi asosiy tipga ajratilmoqda. Biz tahlil qilayotgan uyadosh so‘zlar o‘quv lug‘atchiligi masalasi til tizimini aks ettirishiga ko‘ra tipiga mansub hisoblanadi. Lug‘atning barchasi ham til tizimining qaysidir sathi birliklarini o‘zida aks ettirishi barchamizga ma’lumdir. O‘quv lug‘atchiligi bo‘yicha yetakchi mutaxassis, professor B. Bahriddinova ushbu masalaga quyidagicha fikr bildiradi. “Aksariyat lug‘atda leksemaning leksik-sematik jihatdan birlashuvchi uyalari aks ettirilsa, ayrim lug‘at leksemaning nutqda leksik, morfologik jihatdan o‘ziga mos birikuvchini tanlashi – valentlik imkoniyatiga asoslangan ketma-ketlik munosabatini aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan o‘quv lug‘ati ikki turga bo‘linadi:

a) paradigmatik tipdagi o‘quv lug‘ati (masalan, sinonim, antonim, paronim, uyadosh so‘zlar lug‘ati va h.)

b) sintagmatik tipdagi o‘quv lug‘ati (masalan, so‘zlar birikuvchanligi lug‘ati. Bu tipdagi lug‘at o‘zbek tilida yaratilmagan)”[1] paradigmatik tipdagi o‘quv lug‘atlari ichidan uyadosh so‘zlar o‘quv lug‘atining hozirgacha tuzilmaganligini qayd qilib o‘tishimiz lozim.

O‘zbek tilshunosligida o‘quv lug‘atchiligi masalasida yana bir tadqiqotni malaga oshirgan tadqiqotchi G.Mirxonova keyingi yillarda o‘quv lug‘atchiligi masalasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar haqida to‘xtalib quyidagi fikrlarni bayon qilgan. “Istiqlol yillarida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotidagi yuksalishlar o‘zbek lug‘atchiligi, xususan, o‘quv lug‘atchiligi taraqqiyotida ham muhim davrni boshlab berdi. Turli leksik sistemalar – omonimlar, paronimlar, antonimlar, graduonimlar, uyadosh so‘zlar lug‘ati bilan bir qatorda ayrim sinonim o‘quv lug‘atlar yuzaga keladi.”[2] Ushbu fikrlarning amaliy ifoadasi sifatida biz ushbu tadqiqotimizda uyadosh so‘zlar o‘quv lug‘ati tuzishning nazariy asoslari haqida fikr yuritmoqdamiz. Tilshunoslikda keyingi vaqtlarda so‘nggi yondashuvlar asosida so‘zlararo ma’noviy munosabatlar doirasi kengayib, ma’nodoshlik (sinonimiya) va zid ma’nolilik (antonimiya) hodisalarini o‘rganish bilan cheklanib qolmay, ma’noviy darajalanish (graduonimiya) kabi ma’noviy munosabat ham lisoniy-lug‘aviy tizimda mavjudligi tan olina boshlandi. Bu holat esa sinonimiya va graduonimiya munosabatlariga ham oydinlik kiritishni taqozo qildi. Tilshunos Sh.Orifjonova sinonim va darajalanuvchi so‘zlarni bir-biridan ajratish va o‘xshashliklari haqida fikr bildirib, sinonimik qatorlar ichida uyalar mavjudligiga ishora qiladi. “O‘zbek tilining sinonimlar lug‘atida ma’nosi darajalanuvchi so‘zlar ko‘p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma’nosi darajalab ko‘rsatuvchi so‘zlar ko‘p holatda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoniy sabablari ham mavjud edi. Chunki sinonimlar ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan

[1] Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 53

[2] Мирханова Г. Ўзбек тилининг синонимлар ўқув изоҳли луғатини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022. – Б. 56

so‘zlarni o‘z ichiga oladi”[3]. Biz tadqiq qilayotgan uyadoshlik masalasi aynan sinonim va graduonimlarni farqlash vazifasini bajarishini ham ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Uyadosh so‘zlar va ularning lug‘atlarda berilishi masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2013-yilda O‘z RFA Til, adabiyot va folklori instituti xodimlari: Ne’mat Mahkamov va Ixtiyor Ermatovlar muallifligida umumta’lim maktablari va akademik litsey o‘quvchilari uchun professor N. Mahmudov mas’ul muharrirligida nashr qilingan “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da izoh berilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Uyadosh so‘zlar- Bir turdagi buyum narsa, belgi, harakatni atab keladigan so‘zlar: mevalar: olma, o‘rik, uzum, shaftoli, anjir; gular: atirgul, namozshomgul, gulsafsar, karnaygul, qamishgul; fanlar: matematika, ona tili, adabiyot, tarix, tabiatshunoslik kabi”[4]. Umuman olganda lug‘atlarimizda uyadosh so‘zlar izohi berilganligi holati ko‘plab uchramaydi.

Professor B.Mengliyev va O‘.Xoliyorovlar tomonidan tuzilgan maktab o‘quvchilari uchun “Qomus” (Ona tili)da uyadosh so‘zlar quyidagicha izohlanganligini ko‘rishimiz mumkin: “Uyadosh so‘z- o‘z ichiga oluvchi so‘z uya so‘z va uyaga kiruvchi so‘z uyadosh so‘z deyiladi. Qo‘y uya so‘zi o‘z ichiga qo‘zi, sovliq, qo‘chqor, shishak, to‘qli so‘zini olsa, qoramol so‘zi sigir, novvos, ho‘kiz, buqa, g‘unajin so‘zini oladi. Bir uyaga kiruvchi uyadosh so‘z ichki guruhlarga bo‘linishi mumkin. Masalan: daraxt uyasi o‘z ichida mevali daraxt va mevasiz daraxt uyasiga bo‘linadi. Bu uyachada daraxt nomi mevali va mevasizga bo‘lingan holda yashaydi. Mas: ot uyasi quyidagi kabi uyachalarga bo‘linadi:

a) jins uyasi: ayg‘ir, baytal;
b) zot uyasi: arabi, bedov, qozoqi, muguli, axaltaka;
v) rang-tusi uyasi: saman, to‘riq, chovkar, qorabayir, qashqa, jiyron;
g) vazifa uyasi: salt, aravakash, yukchi, uloqchi, poygachi;

Uya yoki uyadosh so‘z o‘rnida so‘z birikmasi ham bo‘lishi mumkin. Bunga mevali daraxt va mevasiz daraxt birikmasi misol bo‘ladi. U daraxtning mevali turiga nisbatan

[3] Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 47.
[4] Mahkamov N, Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati.-Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2013, B-124

uya birikma, daraxt uyasiga nisbatan uyadosh birikma."[5] Yuqoridagi tasnif nisbatan uyadosh so‘zlar haqidagi mukammal tasnif desa bo‘ladi chunki, ham ta’rif ham tahlil umumlashtirilgan holda bayon qilinganligini ko‘rish mumkin.

Professor N.Uluqov ham o‘zining "Tilshunoslik nazariyasi" nomli o‘quv qo‘llanmasida uyadosh so‘zlarga quyidagicha ta’rif berib o‘tkanligini ko‘rish mumkin. "Uyadoshlik munosabati – bir sathga mansub qiymat jihatidan bir xil til birliklarining ma’lum umumiy belgi asosida bir guruh (uya)ga birlashuvi"[6] deb ta’kidlaganligini o‘qish mumkin.

Rus tilshunos olimi A.Kalinin uyadoshlikka quyidagicha ta’rif berib o‘tadi. "Leksikadagi tematik guruhlar —so‘zlarning umumiy jins belgilariga ko‘ra bir tema atrofiga birlashishidir. Shunga ko‘ra stol, stul, shkaf, etajerka so‘zlari mebellar nomi sifatida bir tematik guruhga birlashadi; ko‘cha, tor ko‘cha (pereulok), maydon, prospekt so‘zlari shahar qismlarining nomi sifatida bir tematik guruhga kiradi."[7] Ushbu masala atrofida bildirilgan fikrlar bazan o‘xshash, bazan farqli xususiyatlarga duch kelishimiz mumkin. Turfa xil fikrlarning paydo bo‘lishiga yillar davomida uyadoshlik masalasi atrofida bildirilgan fikrlarning o‘zgarib borishi bilan bog‘lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2020.

2. B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. Qomus. Toshkent-2009.

3. Калинин А. В. Лексика русского языка. М., 1971.

4. Mahkamov N, Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati.-Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2013.

[5] B.Mengliyev, O’.Xoliyorov. Qomus. Toshkent-2009. B.219-220
[6] Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi – o’quv qo’llanma. 2016. B-179
[7] Калинин А. В. Лексика русского языка. М., 1971, с. 72.

5. Мирханова Г. Ўзбек тилининг синонимлар ўқув изоҳли луғатини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022.

6. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996.

7. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi – o’quv qo’llanma. 2016.

8. Toshqulova, Z. (2024). JAHON ADABIYOTIDA TUN VA TONG DIALEKTIKASINING QIYOSIY TAHLILI. Молодые ученые, 2(37), 124–127